

Sog‘liqni saqlash sohasida xususiy sektorni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori

Sog‘liqni saqlash sohasida xususiy sektorni rivojlantirishga har tomonlama ko‘maklashishni kuchaytirish, xususiy tibbiyot muassasalarining aholiga yuqori texnologiyali sifatli tibbiy xizmatlar ko‘rsatishi uchun zarur sharoitlar yaratish, xususiy tibbiyot sohasiga xorijdan investitsiyalar va yuqori malakali mutaxassislar jalb etishni kengaytirish, shuningdek, tibbiy turizm va tibbiy xizmatlar eksportini rivojlantirish maqsadida:

1. Quyidagilar sog‘liqni saqlash sohasida xususiy sektorni yanada rivojlantirishning asosiy yo‘nalish va vazifalari etib belgilansin:

mamlakatimizning barcha hududlarida xususiy tibbiyot muassasalari tarmog‘i faoliyatini faollashtirish va kengaytirish uchun qulay sharoitlar yaratish, ularning faoliyatini tartibga solish va litsenziyalash tizimini takomillashtirish, sog‘liqni saqlash sohasida xususiy sektorning barqaror rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan masalalarni tizimli hal etish;

xususiy tibbiyot muassasalarining tashxis qo‘yish va davolash bo‘yicha zamonaviy yuqori texnologiyali usullarni keng qo‘llagan holda, keng aholi qatlamlari, jumladan, ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarga yuqori malakali tibbiy yordam ko‘rsatishga qaratilgan xizmatlar ko‘lami va turlarini kengaytirishni har tomonlama rag‘batlantirish;

xususiy tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni zamonaviy tibbiyot uskunalarini, maxsus inventar va asboblar bilan jihozlash, tibbiyot ixtisosliklari turiga mos keladigan va sanitariya norma hamda qoidalari talablariga javob beradigan bino va xonalar bilan ta’minlash;

qulay kredit va lizing mexanizmlarini faol jalb etish orqali xususiy tibbiyot muassasalarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash ko‘lami va hajmini tubdan oshirish, xususiy tibbiyot sohasiga xorijiy investitsiyalar jalb qilishni kengaytirish, yetakchi

xorijiy klinika hamda tibbiyot markazlari bilan hamkorlikda davolash-tashxis muassasalarini tashkil etish;

tibbiy sug‘urta tizimini keng joriy etgan holda, aholiga davlat tomonidan ko‘rsatiladigan kafolatli bepul tibbiy yordam bilan birga sifatli va arzon maslahat-tashxis, davolash, sog‘lomlashtirish va boshqa turdagи tibbiy xizmatlardan foydalanish uchun qo‘s Shimcha imkoniyatlar yaratadigan pulli tibbiy xizmatlar bozorini jadal rivojlantirish;

ilg‘or xalqaro tajribani inobatga olgan holda, xususiy tibbiyot sohasida tibbiy ta’limning zamonaviy usul va texnologiyalaridan foydalanish asosida xususiy tibbiyot sohasi uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish borasida sifatli va samarali tizimni shakllantirish, xususiy tibbiyot muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta’minlash.

2. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, O‘zbekiston xususiy amaliyot vrachlari assotsiatsiyasining xususiy tibbiyot muassasalari uchun ruxsat etilgan va tibbiyot sohasida talab yuqori bo‘lgan kardiojarrohlik, neyrojarrohlik, mikrojarrohlik, onkologiya, endokrinologiya, kardiologiya, qon-tomir, torakal va abdominal jarrohlik, urologiya va boshqa tibbiy faoliyat turlarini tubdan kengaytirish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin, bunda tibbiy faoliyatning aholining hayoti, salomatligi va sanitariya-epidemiologik holatiga katta xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan turlaridan tashqari, barcha tibbiyot turlari qamrab olinsin.

3. Tibbiy faoliyatning aholi hayoti, salomatligi va sanitariya-epidemiologik holatiga katta xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan va xususiy tibbiyot muassasalari uchun taqiqlangan ayrim turlari ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq;

sog‘liqni saqlash sohasida xususiy sektorni yanada rivojlantirishning asosiy vazifa va yo‘nalishlariga muvofiq ishlab chiqilgan Xususiy tibbiyot muassasalarini rivojlantirishni yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlari dasturi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Belgilansinki, xususiy tibbiyot muassasalarida tashxis qo‘yish va davolash, ayniqsa, jarrohlik amaliyotini o‘tkazish bilan bog‘liq hollarda yangi

yuqori texnologiyali usullarni joriy etish faqat tegishli tibbiyot uskunalarini, yuqori malakali tibbiyot xodimlari mavjud bo‘lganda va sanitariya norma hamda qoidalariga qat’iy rioxasi etilgandagina ruxsat etiladi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Mehnat vazirligining 2017 yil 1 maydan sog‘liqni saqlash sohasida kichik korxonalar xodimlari yillik o‘rtacha cheklangan sonining 100 kishigacha bo‘lishi to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilsin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi foydalanimayotgan binolar, ob’yektlar va xonalarni, ayniqsa, sog‘liqni saqlash tizimida tugatilayotgan muassasalarining davlat mulki bo‘lgan ob’yektlarini aholiga tibbiy xizmatlar ko‘rsatadigan tadbirdorlik sub’yektlariga "nol" qiymati bo‘yicha belgilangan tartibda sotishni ta’minlasin, bunda yangi mulkdorlar investitsiya kiritish va ijtimoiy majburiyatlarni zimmasiga olishiga e’tibor qaratilsin.

7. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda Vazirlar Mahkamasiga "O‘zmed-lizing" ixtisoslashtirilgan lizing kompaniyasi ustav kapitalini ko‘paytirish orqali, jumladan, xorijiy investorlar mablag‘larini jalb etish hisobidan tibbiyot muassasalariga zamonaviy yuqori texnologiyali asbob-uskunalar xarid qilish hajmini kengaytirish va lizingga berish chora-tadbirlari to‘g‘risida aniq takliflar kiritsin.

8. Aholiga pullik tibbiy xizmatlar ko‘rsatadigan (stomatologiya va kosmetologiya xizmatlaridan tashqari) xususiy tibbiyot muassasalarini, jumladan, xorijiy investorlar ishtirokidagi xususiy tibbiyot muassasalarini 2022 yilning 1 yanvarigacha quyidagi to‘lovlardan ozod etilsin:

barcha turdagи soliqlar va davlat maqsadli jamg‘armalariga majburiy ajratmalar to‘lashdan, bunda bo‘shagan mablag‘lar xususiy tibbiyot muassasalarini zamonaviy tibbiy, muhandislik-texnik uskunalar bilan jihozlash, ularga servis-texnik xizmat ko‘rsatish, tibbiyot maqsadlari uchun ehtiyyot qismlar, materiallar,

inventar va boshqa buyumlar xarid qilish, tibbiy xizmatlar ko‘rsatish uchun yangi binolar qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash, shuningdek, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga bepul tibbiy xizmatlar ko‘rsatishga yo‘naltirilsin;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro‘yxat bo‘yicha olib kelinadigan yangi tibbiyot asbob-uskunalari, butlovchi buyumlar va ularning ehtiyyot qismlari va materiallari uchun bojxona to‘lovlardan (bojxona rasmiylashtiruvi yig‘imlari bundan mustasno). O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi Moliya vazirligi, O‘zbekiston xususiy amaliyot vrachlari assotsiatsiyasi bilan birgalikda bir oy muddatda yuqorida qayd etilgan soliq imtiyozlari taqdim etilishi natijasida bo‘shaydigan mablag‘lar hisobidan Xususiy tibbiyot muassasalarining aholi ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga bepul tibbiy xizmatlar ko‘rsatish tartibi to‘g‘risidagi nizomni ishlab chiqsin va tasdiqlasin.

9. Qishloq joylarda tibbiy xizmatlar ko‘rsatish sohasida tashkil etiladigan yangi mikrofirmalar va kichik korxonalar davlat ro‘yxatiga olingan kundan boshlab 10 yil muddatga yagona soliq to‘lovidan ozod etilsin.

10. Belgilab qo‘yilsinki:

xususiy tibbiyot muassasalarida ishslash uchun jalb etiladigan xorijiy shifokorlar va zamonaviy tibbiyot asbob-uskunalariga xizmat ko‘rsatadigan texnik mutaxassislar tuzilgan mehnat shartnomalari doirasida olinadigan daromadlar bo‘yicha jismoniy shaxslar daromad solig‘ini to‘lashdan ozod etiladi;

xorijiy shifokorlar va zamonaviy tibbiyot asbob-uskunalariga xizmat ko‘rsatadigan texnik mutaxassislarga tuzilgan mehnat shartnomalari doirasida to‘lanadigan daromadlar yagona ijtimoiy to‘lovdan ozod etiladi; xususiy tibbiyot muassasalarining xorijlik xodimlari boshqaruv personali sifatidagi faoliyatidan oladigan daromadlari jismoniy shaxslar daromad solig‘idan ozod etiladi.

11. Tijorat banklariga:

xususiy tibbiyot muassasalariga zamonaviy tibbiyot asbob-uskunalarini, jumladan, xorijdan sotib olish, boshlang‘ich kapitalni shakllantirish, tibbiy xizmatlar ko‘rsatish maqsadida bino va inshootlar xarid qilish uchun uzoq muddatli imtiyozli kreditlar;

aholiga zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, shu jumladan, bank kredit kartalari bilan hisob-kitob qilish asosida xususiy tibbiyot muassasalarining tibbiy xizmatlaridan foydalanish uchun iste’mol kreditlari taqdim etish tavsiya etilsin.

12. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi Ichki ishlar vazirligi, Sog‘lijni saqlash vazirligi bilan hamkorlikda xususiy tibbiyot muassasalarida ishslash uchun jalg etiladigan xorijiy shifokorlar va tibbiyot asbob-uskunalariga xizmat ko‘rsatadigan texnik mutaxassislariga O‘zbekiston Respublikasiga kelish va yashash uchun ruxsatnoma hujjatlarini rasmiylashtirishda yordam ko‘rsatsin.

13. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘lijni saqlash vazirligi Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Adliya vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga qonunchilikka ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish haqida takliflar kiritsin;

idoraviy me’yoriy hujjatlarni mazkur qarorga muvofiqlashtirishni ta’minlasin.

14. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat maslahatchisi A.N.Yunusxo‘jayev zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Sh.Mirziyoyev

Toshkent shahri, 2017 yil 1 aprel